


# YOSH O'RGANUVCHILARGA INGLIZ TILI TALAFFUZINI O'RGATISH



**Kuvvatillayeva Madina Amirxon qizi**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika*

*instituti, 4-bosqich talabasi*

[kuvvatillayevam@gmail.com](mailto:kuvvatillayevam@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ingliz tili talaffuzini yosh o'rganuvchilarga samarali o'rgatish masalasi yoritiladi. Unda fonetik kompetensiyanı shakllantirish, eshitish va takrorlashga asoslangan metodlardan foydalanish, artikulyatsion mashqlar, urg'u va intonatsiyani o'zlashtirish jarayonidagi muammolar va ularni bartaraf etish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, darslarda ko'rgazmali vositalar, o'yinli mashg'ulotlar va audiovizual materiallar orqali talaffuzni o'rgatishning afzalliliklari ko'rsatib beriladi. Maqola kichik yoshdagи o'rganuvchilar bilan ishlovchi ingliz tili o'qituvchilari uchun nazariy va amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

**Abstract:** This article focuses on effective strategies for teaching English pronunciation to young learners. It highlights the importance of developing phonetic competence through listening and repetition-based methods. The study analyzes the use of articulation exercises, stress and intonation training, and the role of visual, interactive, and audiovisual tools in enhancing pronunciation skills. Additionally, it addresses common difficulties encountered by young learners and offers theoretical and practical recommendations for English language teachers working in early education settings.

**Kalit so'zlar:** talaffuz, yosh o'rganuvchilar, fonetik kompetensiya, artikulyatsiya, urg'u, intonatsiya, eshitish qobiliyati, til o'rganish, erta ta'lif, o'qitish strategiyalari.

**Keywords:** pronunciation, young learners, phonetic competence, articulation, stress, intonation, listening skills, language learning, early education, teaching strategies

Ingliz tili talaffuzi til o‘rganish jarayonida muhim o‘rin tutadi, ayniqsa bu yosh o‘rganuvchilar bilan bog‘liq bo‘lsa. Talaffuz — bu nafaqat fonetik tovushlarni to‘g‘ri aytish, balki tilning ritmi, urg‘usi, intonatsiyasi, va tovushlarning o‘zaro uyg‘unligi bilan ham bog‘liq murakkab tizimdir. Yosh o‘rganuvchilar tilni o‘zlashtirishda ko‘proq eshitish va takrorlash asosida harakat qiladilar, bu esa ularning tabiiy o‘rganish mexanizmlari orqali til elementlarini ongli va ongsiz tarzda singdirishiga imkon yaratadi. Talaffuzni o‘rgatish jarayonida eshitish orqali o‘zlashtirish eng tabiiy va samarali usullardan biridir, ayniqsa bu yosh o‘rganuvchilarga taalluqli bo‘lsa.<sup>1</sup> Shunday ekan, talaffuzni o‘rgatishda bиринчи navbatda o‘quvchilarning eshitish sezuvchanligini rivojlantirish, o‘zlashtirgan tovushlarni takrorlash imkoniyatlarini yaratish, hamda ularni to‘g‘ri nutq modeliga moslashtirish kerak. Aynan fonemik eshituvni mustahkamlash orqali bola tovushlar orasidagi farqni sezadi va asta-sekin ularni ongli ravishda takrorlay oladi. Bu jarayonning muvaffaqiyati esa o‘qituvchining talaffuz namunasini to‘g‘ri va aniq berishi, shuningdek o‘rgatuvchi muhitni yaratishiga bog‘liq. Fonetik jihatdan qaralganda, ingliz tilining tovush tizimi o‘zbek tiliga nisbatan murakkabroq bo‘lib, ko‘plab yangi fonemalarning mavjudligi bilan farqlanadi. Ingliz tilidagi interdental tovushlar (/θ/ va /ð/), shuningdek qisqa va uzun unli tovushlar, differensial urg‘ular va h fonemasining barqarorligi — bularning barchasi o‘zbek tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri muqobiliga ega bo‘lmagan elementlardir. Shu sababli o‘qituvchilar bu tovushlarning talaffuzini bolalarga vizual va eshituv asosida tushuntirishlari, til va lab pozitsiyalarini ko‘rsatish orqali artikulyatsion mashqlarni tashkil etishlari lozim. Bu yerda og‘zaki ko‘rsatmalarni video yoki oyna orqali vizual model bilan qo‘llab-quvvatlash, ko‘z va qulqoq orqali integratsiyalashgan o‘rganishni ta‘minlaydi. Bolalarning nutq apparati hali to‘liq shakllanmaganligi sababli, ular uchun har bir

<sup>1</sup> G‘anieva M. Ingliz tili fonetikasi. – Toshkent: O‘zDJTU nashriyoti, 2015. – B. 28.

yangi fonemani to‘g‘ri pozitsiyada talaffuz qilish uchun ko‘p marotaba takroriy mashqlar talab etiladi. Bundan tashqari, fonetik kontrastlar asosida tashkil etilgan o‘yinli mashg‘ulotlar orqali farqli tovushlarni tanish va to‘g‘ri aytish ko‘nikmalari mustahkamlanadi.

Urg‘u (stress) va intonatsiya (intonation) ham ingliz tili talaffuzining ajralmas tarkibiy qismlaridan bo‘lib, ularni noto‘g‘ri qo‘llash natijasida so‘z yoki gapning ma’nosini buzilishi, ba’zida esa to‘liq tushunarsizlik yuzaga kelishi mumkin. Ingliz tilida urg‘u ko‘pincha so‘zning leksik yoki grammatik ma’nosini belgilab beradi — masalan, ‘record (ot) va re‘cord (fe’l) so‘zlari kabi. Intonatsiya esa so‘zlovchining kayfiyati, niyati, savolmi yoki buyruqmi kabi kommunikativ maqsadini aniqlashtiradi. To‘g‘ri urg‘u va intonatsiya bola nutqining ravonligi va tushunarligini belgilovchi asosiy fonetik omillardandir.<sup>2</sup> Yosh o‘rganuvchilarda bu jihatlarni shakllantirish uchun melodik gaplar, ohangli she’rlar, dramatik sahnalar, qo‘shiqlar va takroriy tinglov mashqlari orqali intonatsion model asosida o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir tinglov vazifasi bolalarga so‘zning urg‘usini aniqlash, eshitish va to‘g‘ri joylashtirish ko‘nikmasini beradi. Talaffuzni o‘rgatish uni alohida element sifatida emas, balki ritm, urg‘u va intonatsiyani o‘z ichiga olgan kommunikatsiyaning ajralmas qismi sifatida yondashish orqali amalga oshirilishi zarur.<sup>3</sup> Bularning barchasi esa kommunikativ nutqni ko‘proq kontekstga bog‘lab, tushunish va aytish malakasini birgalikda rivojlantiradi.

Talaffuzni o‘rgatishda darslarning jonli, interaktiv va bolalar uchun qiziqarli o‘tishi juda muhim. O‘yin usullaridan foydalanish — kartochkalar bilan ishslash, tovushlarni tanib olish musobaqalari, rasm asosida gapishtirish, tinglab topish kabi metodlar bolalarning diqqatini doimiy ushlab turishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, audio yozuvlar, multfilmlar, animatsion videolar orqali bolalar standart talaffuz namunalarini eshitib, ularni mustaqil yoki guruh bilan birga takrorlashga harakat

<sup>2</sup> Karimov Z. Til o‘rganishda talaffuzning o‘rni. – Samarqand: Ilm Ziyo, 2019. – B. 44.

<sup>3</sup> Roach P. English Phonetics and Phonology: A Practical Course. – 4-nashr. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – B. 123.

qiladilar. Ushbu interaktiv vositalar orqali ular nafaqat to‘g‘ri talaffuz, balki tilga xos ritm va ohanglarni ham o‘zlashtira oladilar. Har bir yangi so‘zni eshitish, ko‘rish, tan olish, takrorlash va oxir-oqibat kontekstda qo‘llash orqali bolalarda fonologik avtomatizatsiya yuzaga keladi. Bu esa ularning so‘zlarni faqat yodlash emas, balki amaliy nutqda to‘g‘ri ishlatishtiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, yosh o‘rganuvchilarga ingliz tili talaffuzini o‘rgatishda ko‘rgazmali, eshituvga asoslangan, faol va hissiy jihatdan jalg etuvchi metodik yondashuvlar ustuvor hisoblanadi. Har bir bola individual rivojlanish xususiyatlariga ega bo‘lganligi sababli, ularning psixologik holati, tilga bo‘lgan motivatsiyasi va fonetik og‘irlik darajasini hisobga olish zarur. O‘qituvchi har bir o‘quvchi bilan individual va guruhiy mashg‘ulotlarni muvozanatda olib borib, multimodal metodlardan foydalanishi lozim. Bu yondashuvlar orqali nafaqat to‘g‘ri talaffuzga, balki kommunikativ kompetensiyaga asoslangan mustahkam til ko‘nikmalari shakllantiriladi. Talaffuzni o‘rgatish — bu til o‘rganishning birinchi poydevori bo‘lib, u to‘g‘ri qo‘ysa, keyingi bosqichlarda o‘quvchining lisoniy muvaffaqiyati uchun asos bo‘ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazizov, A. (2007). Fonologiya. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
2. Brown, H. D. (2007). Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. Pearson Education.
3. G‘anieva, M. (2015). Ingliz tili fonetikasi. Toshkent: O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti nashriyoti.
4. Karimov, Z. (2019). Til o‘rganishda talaffuzning o‘rni. Samarqand: Ilm Ziyo.
5. Roach, P. (2009). English Phonetics and Phonology: A Practical Course (4th ed.). Cambridge University Press.